



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 28-fevral, shanba,
18-19 (24.198-24.199)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bulbul
chamanni
sevar, odam -
Vatanni

Hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish vazifalari

deputatlar nazoratida bo'lad

**26-fevral kuni xalq deputatlari
viloyat Kengashining yigirma
yettinchi sessiyasi o'tkazildi.
Sessiya ishini Kengash raisi
Sh.Negmatov boshqardi.**

Sessiyada deputatlar bilan birga viloyat hokimi A.Boboyev, tuman va shaharlar hokimlari ishtirok etdi va dastlab har bir tuman va shaharni 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar taqdimot qilindi.

Har yili Prezidentimiz belgilab bergan vazifalar va tegishli dasturlar asosida viloyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqamiz va yil davomida ularni bajaramiz, dedi viloyat hokimi A.Boboyev. Albatta, bu dasturlarda hududlar infratuzilmasini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ko'p hollarda bu vazifalar ijrosi hududning birinchi rahbariga bog'liq bo'lib qolishi, boshqa mutasaddilar mas'uliyatini unutib qo'yishi kuzatiladi. Shuning uchun bu yil har bir tuman va shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun aniq muddat va mas'ullarni belgilashga qaror qildik. Bu dasturlarning viloyat Kengashi sessiyasida taqdimoti o'tkazilib, deputatlar tomonidan tasdiqlab berilishi yil davomida uning ijrosi ham deputatlar nazoratida bo'lishini anglatadi.

Sessiyada barcha tuman va shaharlar hokimlari joriy yilda o'z hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalari haqida ma'lumot berdilar, tuzilgan dasturlar deputatlarga tarqatildi.

Atroflicha muhokamalardan so'ng har bir tuman, shahar bo'yicha dasturlar tasdiqlanib, ularning ijrosi Kengash sessiyalarida muhokama qilib borilishi, deputatlar tomonidan nazorat qilinishi ta'kidlandi.

Shundan so'ng viloyat hokimining o'rinbosari - o'ila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Saidova viloyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida hisobot berdi.

Qayd etilishicha, o'tgan yil viloyatda boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushi 30,2 foizga yetdi va 4400 dan ortiq ayollar rahbarlik vazifalarida ishlab kelmoqda. 19 nafar opa-singillarimiz "Rahbar ayollar maktabi"da malaka oshirib, ayni paytda turli sohalarida mehnat qilmoqda. Ya'ni, 19 nafar xotin-qiz "Mo'tabar ayol", 165 o'ila "Ibratli o'ila" ko'krak nishonlari bilan taqdirlandi. Eh-tiyojmand oilalarning 727 nafar qiz farzandlariga oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun tavsiyanoma berildi. 130 nafar yordamga muhtoj qizlarning 2025-2026-o'quv yili uchun to'lov-shartnoma puli to'lab berildi. Yil davomida 145 mingdan ortiq xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. 20 ta mahallada xotin-qizlar bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etildi. "Ayollar

daftari"ning oltinchi bosqichi doirasida 104 ming 509 nafar xotin-qizlar ushbu daftarga kiritilib, ularga amaliy yordamlar ko'rsatildi. Tazyiq va zo'rvonlikka uchragan 4426 nafar ayolga himoya orderlari berildi.

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi ishlarimiz joriy yilda yana ham keng ko'lamda davom etmoqda, dedi Z.Saidova. Bu yil 20 ming 758 nafar opa-singillarimizni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, 90 ming nafari bandligi ta'minlash ko'zda tutilgan. Barcha tuman va shaharlarda "Xavfsiz o'ila" keng qamrovli maxsus profilaktik tadbirlar o'tkaziladi. Samarqand shahrida "O'ila va xotin-qizlar maskani" qoshida tadbirkor ayollar tomonidan "Xotin-qizlarni rivojlantirish markazi" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu orqali 200 nafar ayol kasb-hunar kurslarida amaliy malaka egallab, qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ladi. Bunday markazlar boshqa tuman va shaharlarda ham tashkil etiladi.

Kun tartibiga muvofiq, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari B.Mirzayev viloyat mahalliy budjetining 2025-yildagi ijrosi bo'yicha hisobot berdi.

Ta'kidlanishicha, 2025-yilda umumiy daromadlar prognoz rejas 6 trillion 95 milliard so'mni tashkil etib, amalda 6 trillion 679 milliard so'mga bajarilgan. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar va amalga oshirilgan ishlar natijasida viloyat, tuman (shahar) hokimliklari uchun 715,3 milliard so'm qo'shimcha daromadlar manbasi yaratilgan. O'tgan yil davomida viloyat mahalliy budjetining xarajatlar qismi 105,3 foizga iyro etilib, 10 trillion 556 milliard so'mlik xarajatlar amalga oshirilgan.

2025-yilda fuqarolar tashabbusi jamg'ar masiga 714,9 milliard so'm mablag'lar sarflangan. Biroq 1-mavsum loyihalari boshlanganiga 10 oy bo'lishiga qaramay, Samarqand viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachilik xizmati" DUK tomonidan 5 ta loyiha va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 1 ta loyiha yakunlanib topshirilishi kechikmoqda. 2-mavsumning jihozlash bo'yicha loyihalari boshlanganiga 5 oy o'tgan bo'lsa-da, maktabgacha va maktab ta'limi hamda sog'liqni saqlash hududiy bo'limlari tomonidan 8 ta loyiha bo'yicha jihozlarni xarid qilish ishlari yakunlanmagan.

Hisobotda qayd etilgan kamchiliklar yuzasidan mas'ullardan izoh so'raldi va loyihalarni qisqa fursatlarda bajarish vazifasi topshirildi.

Sessiyada viloyatda 2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlari yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni tasdiqlash, viloyat mahalliy budjetining 2026-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish, tanlab olingan "og'ir" toifadagi tumanlar va mahallalarni 2026-yilda kompleks rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni tasdiqlash to'g'risidagi va Kengash vakolatiga doir boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.



Yoshlar muammolariga yechim izlandi

24-fevral kuni Prezidentimizning yoshlar bilan o'tkazgan muloqoti davomida mamlakatimizda har haftaning payshanba kuni "Yoshlar kuni" deb belgilandi. Ushbu kunda sohaga mas'ul rahbarlar joylarga mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlarni tinglash va ularning muammolarini hal qilishi lozimligi ta'kidlandi.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Yoshlar markazida viloyat hokimi Adiz Boboyev yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Uchrashuv avvalida viloyat rahbari yoshlarga murojaat qilib, bugungi muloqot ochiq va samimiy ruhda o'tishi lozimligini ta'kidladi. U yoshlarni faol bo'lishga chaqirib, qanday taklif, muammo yoki e'tiroz bo'lsa, ikkilanmay bayon etishlarini so'radi.

Biz sizlarni tinglash, dardu tashvishlaringizni bilish va ularga yechim topish uchun shu yerdamiz, dedi hokim. Agar faoliyatimizda kamchiliklar bo'lsa, ulardan xulosa chiqaramiz, hal etilishi kerak bo'lgan masalalar bo'yicha esa mas'ullar bilan birgalikda aniq chora-tadbirlar ko'ramiz.

Tadbirda ishtirok etgan viloyatimizning faol, tashabbuskor va iqtidorli yigit-qizlari o'zlarini qiynayotgan masalalar, taklif va

g'oyalarini o'rtaga tashladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan "Payshanba - Yoshlar kuni", deb e'lon qilingani ko'nglimizdagi gap bo'ldi, deydi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi Mahbuba Salimova. Viloyatimiz hokimi biz, yoshlar bilan uchrashib, ko'plab muammo va takliflarimizni tingladi hamda ularni hal etish choralari ko'rishini bildirdi. O'zim "IT TANLOV" va "Coder Girls" kabi olimpiadalar g'olibasiman. Uchrashuvda "Braille Phone" loyihasi orqali ko'zi ojizlar uchun maxsus qurilma yaratish taklifim bilan ishtirok etdim. Viloyat rahbari tashabbusimni qo'llab-quvvatlashini aytdi.

Maktablarda 6-sinfanoq o'quvchilarning qiziqishiga qarab alohida qo'shimcha darslar tashkil etish kerak, deydi Samarqand shahridagi 33-maktab o'quvchisi Alisher Qahramonov. Masalan, iqtisodiyotga qiziqqanlarga iqtisod fanidan, kimyoga qiziqqanlarga esa kimyo fanidan chuqurlashtirilgan darslar o'tilishi lozim. Ayrim davlatlarda tengdoshlarimiz uchun 5-sinfanoq bunday tizim yo'lga qo'yilgan. Shu sababli ular o'zlari qiziqqan sohani ertaroq o'rganmoqda. Bizda ham bu tizim joriy etilsa, har bir o'quvchi o'zi sevgan yo'nalishda kuchli mutaxassis bo'lib yetishadi.

Tadbirda davomida bildirilgan fikr va tashabbuslar atroflicha muhokama qilinib, mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Charos SAIDOVA.



Samarqand shahridagi Yoshlar markazida Superliganing joriy yilgi mavsumi oldidan "Dinamo" jamoasi tarkibi va murabbiylar shtabi tanishtirildi.

Jamoaning mavsumoldi taqdimoti va tanishtiruv marosimida viloyat hokimi, viloyat futbol assotsiatsiyasi prezidenti Adiz Boboyev, klub homiylari, mu'tasaddi rahbarlar, jamoa muxlislari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda avvalida viloyat rahbari

"Dinamo" jamoasining o'tgan mavsumdagi yorqin o'yinlarini e'tirof etdi. Futbolchilarni yangi mavsum bilan tabriklab, «Dinamo»ning yuqori natijalarga erishishi uchun qo'llab-quvvatlanishini bildirdi.

Yangi mavsum g'alabalarga boy bo'lishi, Superliga va O'zbekiston kubogi bahslarida sovrinli o'rinlarni egallash klub rahbariyati va futbolchilar oldidagi asosiy vazifa, dedi A.Boboyev. Buning uchun jamoaga barcha sharoitlarni yaratib beramiz, doim qo'llab-quvvatlaymiz. Agar bu mavsum "Dinamo" chempion bo'lsa, Samar-

qandda yangi stadion qurilishini ham boshlaymiz.

Vadim Abramov boshchiligidagi jamoaning yangi tarkibi, murabbiylar shtabi ommaga tanishtirildi va futbolchilarga liboslari tarqatildi. Shuningdek, viloyat rahbari Adiz Boboyevga 72-raqam topshirildi.

Bugun Superliganing birinchi turi doirasida «Dinamo» - «Navbahor» o'yini bo'lib o'tadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

(6-sahifaga qarang) >>>



Ramazon - mehr-muruvvat,
ahillik va shukronalik oyi



Mevali daraxtlar qachon va nima
uchun kesiladi?



O'zi yuz kilo vaznda bo'lgan
shifokorga kim ishonadi?



Viloyat hududiy qurilish va uy-joy
kommunal xo'jaligi nazorati inspeksiyasi
fuqarolar murojaatlariga doimo ochiq

LOQAYD BO'LISHGA HAQQIMIZ YO'Q

SamDU rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Rustam Xolmurodov talabalar, ziyolilar, ota-onalar va nuroniylarga murojaat yo'lladi

Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan o'tkazgan muloqotidan kelib chiqib, murojaat qilmoqchiman.

Aziz talabalar!

Prezidentimiz uchrashuv davomida juda katta imkoniyatlar portfelini sizga taqdim etdi. Har bir yosh u talaba bo'ladimi, hunarmand bo'ladimi, ishchi-xizmatchi bo'ladimi, tadbirkor yoki fermermi, davlatimiz rahbari ilgari surgan imtiyoz va qulayliklardan unumli foydalanishi kerak.

Prezidentimizning uchrashuvdagi nutqini chuqur o'rganishingiz, tahlil qilishingiz, har biringiz o'z hayotingizga tatbiq qilishingiz kerak.

Hurmatli professor-o'qituvchilar, ziyolilar, oliy o'quv yurtlari mutasaddilari!

Har bir talaba-yoshga o'z farzandingiz qatorida qarashingiz, mehr ko'rsatishingiz, hayotda o'z o'rini topishiga ko'maklashishingiz zarur.

Prezident uchrashuvda bildirgan fikrlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda vijdonan jonbozlik ko'rsatishingiz kerak.

Bu avvalo, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratishdan boshlanadi. Bilim berishda halollik va adolat tamoyillariga amal qilishingiz zarur. Bu borada zamonaviy texnologiyalar va internet imkoniy-



yatidan to'g'ri va o'rinni foydalanish muhim.

Jadid bobolarimiz o'z hisobidan maktablar ochishgan, bosmaxonalar barpo etishgan, kitob, jurnal, gazetalar chop qilishgan.

Biz hech bo'lmaganda, bobalarimizni yaxshi o'qitib, natijalar ko'rsatishimiz zarur.

Qadrlil ota-onalar!

Prezident sizning bolalaringiz uchun shunchalik jon kuydirayotgan bir paytda Sizu bizning loqayd bo'lishga haqqimiz yo'q! Bolalarimizning yaxshi o'qishi, hunar o'rganishi, tadbirkorlik qilishi uchun Siz ham o'z hissangizni qo'shing!

Maktab, texnikum yoki oliy o'quv

yurtida tahsil olayotgan bolalarimizning o'qishini nazorat qiling. Ularni darsdan tashqari vaqtlarda nimalar bilan bandligiga qiziqing.

O'qituvchi va tarbiyachilar bilan yaqin aloqa o'rnatish. Farzandingizda kechayotgan har qanday psixologik o'zgarishlarga befarq bo'lmang. Prezident yaratib bergan sharoitlardan bolangiz to'g'ri foydalana olsa, ertaga nafaqat o'zini, balki butun oilaning taqdirini o'zgartirib yuboradi.

Ota-ona va ta'lim dargohi tushunchasidan, avvalo, siz manfaatdor ekanligingizni unutmang!

Muhtaram nuroniylar!

Hayotda to'plagan katta tajribangiz - ko'rgan-kechirganlaringiz haqida yoshlarimizga hikoya qilib berishingiz juda muhim. Ularning kelajakda vatanparvar, millatparvar bo'lib ulg'ayishida mas'ul ekanligingizni alohida ta'kidlashni istayman.

Yoshlar ongini turli balo-ofatlardan himoya qilishga, "Ota-ona - ta'lim muassasasi - mahalla" konsepsiyasiga amal qilishda, albatta, sizning yordamingizga tayanamiz.

Qolaversa, Prezidentimiz bildirgan har bir fikr-mulohazalarning mazmun-mohiyatini ota-onalarga, yoshlarga yetkazish va targ'ib qilish uchun mas'ulsiz.



Stipendiya joriy etilgan maktab

Rag'bat doim kishilarda faollikni oshirib kelgan. Shuning uchun har sohada insonlar bir-birini rag'batlantirib turishi kerak. Ayniqsa, bilim maskanlarida o'quvchilar rag'batlantirib turilsa, ularda bilim olishga ishtiyoq kuchayadi. Kattaqo'rg'on shahridagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabida ikki yildan buyon a'lochi o'quvchilar uchun stipendiya joriy etilib kelinadi. Maktab faoliyatini o'rganish maqsadida ushbu ta'lim maskanida bo'ldik.

- Maktabimizning sobiq o'quvchisi soliq sohasida mehnat qilayotgan Jahongir Abdiyevning tashabbusi va taklifi bilan o'quvchilar uchun stipendiya tashkil qilganmiz, - deydi maktab direktori Nargiza Foziyeva. - Jahongirning onasi Rahbar Abdiyeva qator yillar ushbu maktabda boshlang'ich sinflarga dars bergan. Muallimning vafotidan keyin farzandlari maktabda onasiga savobi yetib turishini niyat qilib, ushbu xayriy ishga qo'l urishdi.

Dastlab maktabda o'quvchilarga stipendiya berishning nizomi ishlab chiqilgan. Nizom shartlariga ko'ra, har yili sentabr oyida 7-11-sinf o'quvchilaridan tarix, matematika, kimyo, biologiya, ingliz tili, ona tili, adabiyot, huquq fanlaridan imtihon olinadi. Har bir sinfda fanlardan eng yuqori ball to'plagan uch nafar o'quvchiga stipendiya joriy etiladi. G'oliblarga besh oy muddat stipendiya beriladi. Masalan, sentabrda g'olib bo'lganlar yanvar oyiga qadar, fevral oyida g'olib bo'lganlar iyun oyiga qadar stipendiya oladi.

- Imtihonda eng yuqori ball to'plab, birinchi o'rinni qo'lga kiritgan o'quvchiga oyiga 300 ming so'm, ikkinchi o'ringa 200 ming, uchinchi o'rin sohibiga 100 ming so'mdan stipendiya beriladi, - deydi N.Foziyeva. - O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish maqsadida ushbu pullarni har oy maktab jamoasi oldida tantanali topshiramiz. Shuningdek, g'oliblarning ota-onalarini ham tashakkurnomalar bilan taqdirlaymiz. Bu albatta, o'quvchilarda bilim olishga intilishni yanada kuchaytirayapti. Hatto talabgorlar ko'payib ketayotganidan imtihonda qatnashganlarning natijalarini tekshirishga ancha vaqtimiz ketmoqda.

Bundan tashqari, fan olimpiadalarida shahar, viloyat bosqichida yuqori o'rinlarni olgan o'quvchilarga, milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilarga bir martalik mukofot puli beriladi. Masalan, o'tgan yili yuqori sinf o'quvchilaridan Bahodir Shukrullayev va Sarvar Ochilovga ingliz tilidan IELTS sertifikatini qo'lga kiritgani uchun 600 ming so'mdan rag'batlantirish puli berilgan.

- Nam ushbu maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan, - deydi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Zulxumor Abdiyeva. - Onamning xotirasiga biz farzandlar maktabda "Abdiyeva Rahbar Salimovna" nomidagi stipendiya tashkil etdik. Akam har safar mendan "O'quvchilarda o'qishga qiziqish kuchaydimi?" deb so'raydi. O'quvchilarni rag'batlantirish orqali o'zgina bilim olishga qiziqtirayotgan bo'lsak, bu bizning yutug'imiz. Mahallamizdan Vatanimiz taraqqiyoti-hisssa qo'shadigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqishini istaymiz.

Safarimiz davomida stipendiya sohiblari bilan

ham uchrashdik.

- Stipendiyamga kitoblarni sotib olayapman, - deydi 8-sinf o'quvchisi Mavluda Shukurova. - Bu ota-onamga yordam bo'lyapti, ular ham stipendiya sohibi bo'lganimgan xursand.

- Sinfdoshlarim ham stipendiya olishga harakat qilib, yaxshi o'qiyapti, - deydi 11-sinf o'quvchisi Aziza Ismoilova. - Yaqinda ona tilidan milliy sertifikatga ega bo'ldim. Sentabr oyida tanlovda qatnashib, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdim va shu kunga qadar 200 ming so'mdan stipendiya olib kelyapman. Nasib bo'lsa, keyingi tanlovda ham qatnashmoqchiman.

Maktabda joriy etilgan stipendiya ba'zilar uchun arzimaz puldek tuyulishi mumkin. Ammo o'zgina rag'bat ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otganini ularning gaplaridan bilib oldik. Balki shuning uchundir yangi o'quv yilida maktab o'quvchilari ko'plab tanlovlarda qatnashib, faxrli o'rinlarni egallagan. Masalan, maktabning 4 nafar o'quvchisi fan olimpiadasida viloyat bosqichiga chiqqan. Maktab jamoasi "Ekologiyaga oid huquqingizni bilasizmi?", badminton bo'yicha "Umid nihollari" sport musobaqalarining viloyat bosqichida, "Yosh qutqaruvchilar" ko'rik-tanlovining shahar bosqichida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

Bundan tashqari, o'quvchilar jamoasi "Besh tashabbus olimpiadasi"da armresting bo'yicha birinchi o'rinni egallagan uchun ikkita zamonaviy sport maydonchasi yutib olgan. Hozircha maktab hovlisida bitta zamonaviy sport maydonchasi qurib berilgan. Ikkinchisi yaqin kunlarda qurilishi rejalashtirilgan.

Maktab Eco-Schools loyihasida ham faol qatnashib, maktab hovlisida issiqxona qurilishiga ruxsat olgan. Albatta, bunday yutuqlarning boshida tashabbuskor, faol rahbar turganini ham e'tirof etish kerak.

- O'tgan yilning may oyida menejerlik sertifikatini oldim, - deydi maktab direktori. - Sertifikat olganimgan keyin maoshim ikki baravarga ko'tarildi. Bugun 13 million so'm maosh olayapman. Shuningdek, o'qituvchilardan Olmos Abdullayev, Gulruh Sharipova, Farida Xayriyeva, Sevara Sharofiddinova 13-14 million so'mdan oylik ish haqi olishyapti. Maktabda 8 nafar o'qituvchida ham milliy, ham xalqaro darajadagi sertifikatlar mavjud. Yana 5 nafar o'qituvchi milliy sertifikatga ega.

Maktab hayoti bilan tanishar ekanmiz, homiylar tomonidan o'quvchilarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan xursand bo'ldik. Afsuski, bunday maktablar viloyatimizda barmoq bilan sanarli. Qaniydi, bu kabi maktablar ko'paysa, rahbarlar o'zi ta'lim olgan maktabiga o'zgina bo'lsa ham hissa qo'shishga harakat qilsa.

Xurshida ERNAZAROVA.

Munosabat

Yoshlarimiz Uyg'onish karvonida

Prezident Sh.Mirziyoyevning Ko'ksaroy qarorgohida yoshlar bilan uchrashuvini ko'rib, davlatimiz rahbari uzoqni ko'zlab siyosat yuritayotganligiga yana bir bor amin bo'ldim. Negaki, besh-olti yildan buyon davlat siyosatining asosiy yo'nalishi ta'limga, tarbiyaga, yoshlarni hayotga tayyorlashga, ularga kasb o'rgatishga, yig'it-qizlarni zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga yo'naltirilayotganini ko'rib turibmiz. Bu borada mamlakat bo'yicha keng ko'lamlil ishlar olib borilayotganligi ham sir emas.

Bizning partiyamiz ham elektoratimiz orasidagi yoshlar ishtirokida juda ko'p tadbirlar o'tkazaypti. Kengash qoshidagi "Yoshlar qanoti" deyarli har oy olis qishloq yoshlari bilan davralar uyushtiryapti. "Uyma-uy" loyihasi doirasida esa mahalliy kengashlar deputatlari bilan birgalikda o'tgan yili mingdan ziyod xonadonlarga borildi, o'tkazilgan tadbirlar natijasida 114 nafar yigit-qiz ish bilan ta'minlandi, 25 nafariga esa kredit olib berishda ko'maklashildi. Lekin joylarda bo'lganimizda bu borada hali ko'p muammolarga duch kelyapmiz, normativ hujjatlar zarurligini sezyapmiz. Davlatimiz rahbari yoshlar bilan suhbat jarayonida ana shu muammolarimizning deyarli barchasiga yechim topib berdi. Yechim topdigina emas, balki bu vazifalarni qanday qilib uddalash yo'llarini ham ko'rsatdi.

Har oyda hokimliklar tomonidan yoshlar bilan muloqotlar an'anaga kirgan bo'lsa-da, bu masalani har haftada amalga oshirish belgilandi. Safimizdagi yoshlar bilan Prezidentimizning har bir taklifini ishtiyoq bilan kuzatib turdik. Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun 200 million dollar ajratilishi aytilganda yoshlarimiz bu tashabbusni o'rinlaridan turib olqishladilar.

Bundan tashqari, xususiy ta'lim markazlarini rag'batlantirish, olis hududlarda til o'qitishni kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun soliq va kommunal to'lovlardan imtiyozlar berish, volontyorlik harakatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tashabbuslar ham qizg'in kutib olindi. Shubha yo'qki, ushbu muloqotni kuzatib borgan 60 ming nafardan ziyod yigit-qizlar ana shunday kayfiyatda bo'ldilar. O'zbekiston yangi davr sari intilmoqda. Bu davr jahon ham-



jamiyatida o'z o'rini topishga intilish jarayonidir. Garchi bizni ko'pchilik e'tirof etayotgan, biz bilan ishlashga intilayotgan bo'lsa-da, imkoniyatlarimiz hali juda katta. Biz ikki uyg'onish davrida ham allomalarimiz yalovbardor bo'lganligini yaxshi bilamiz, ularning meroslari bugun ham bizga dasturilamal bo'lmoqda. Shu bois davlatimiz rahbari yangi avlod Uchunchi renessans davrining poydevorini qo'ya olishiga katta ishonch bildirmoqda. Yoshlarimizning bugungi yutuqlari bu vazifani bemalol uddalay olishimizni ko'rsatib turibdi.

Binobarin, Ko'ksaroydagi mashvarat davlatning yoshlar hayoti bo'yicha olib borayotgan ulug'vor siyosatiga o'ziga xos salohiyat bag'ishladi, desam xato qilmayman. Chunki bunday imtiyoz va imkoniyatlar, g'amxo'rliklar, tabiiyki, yig'it-qizlarimizga zamonaviy kasblarni egallash, dunyo bilan bo'yilash olish imkonini beradi. Biz esa ana shunday ezgu harakatda, partiyamiz dasturlari asosida jamiyatdagi yangicha shijoatni qo'llab-quvvatlashda kamarbas-ta bo'lavaramiz.

**Akbar AKTAMOV,
"Milliy tiklanish"
demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi.**

**BU
FAKTI!**

Bojxona boshqarmasiga ko'ra, joriy yilning yanvar oyi davomida chegara bojxona postlari orqali 9570 ta avtotransport vositalari hamda 720 ta aviatransport vositalari, 233 ming 308 nafar fuqaro harakatlangan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan avtotransport vositalari 2245 taga hamda aviatransport vositalari 103 taga oshgan. Fuqarolar harakati esa 18 889 nafarga ko'paygan.



"Nuroniylar choyxonasi"

zamonaviy jihozlandi

Nuroniylar hayot maktabini o'tagan ustozlardir. Ular bergan maslahat, aytgan nasihatlar yoshlar uchun bebaho qo'llanma hisoblanadi. Ota-bobalarimizdan meros bo'lib qolgan an'ana va urf-odatlarini asrab-avaylashda ham nuroniylarning o'rni beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustda qabul qilingan "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiri-

lari to'g'risida"gi farmoni bilan fuqarolik jamiyati institutlari safida bo'lgan "Nuroniy" jamg'armasi uchun ham keng imkoniyatlar ochildi.

"Nuroniy" jamg'armasi viloyat bo'limi ham bir qator nodavlat tashkilotlar qatori Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining grant tanlovlari-da ishtirok etdi. Xususan, o'tgan yili "Nuroniylar har doim e'zozda" nomli loyiha bilan davlat granti g'olibi bo'ldi. 160 million so'mlik grant mablag'larlari jamg'armaning viloyat bo'limi qoshida tashkil etil-

gan "Nuroniylar choyxonasi"ning zamon talablari-ga moslab jihozlanishiga sarflandi.

Ushbu loyiha orqali "Nuroniylar choyxonasi"-da viloyatimiz nuroniylariga qulay shart-sharoitlar yaratib berish nazarda tutilgan bo'lib, choyxona barcha maishiy texnikalar, sport anjomlari bilan ta'minlandi. Kirish qismidagi ochiq ayvon zamonaviy ko'rinishdagi rom va oynalar bilan yopilib, nuroniylar uchun majlislar zali tashkil etildi.

**Xudoyberdi KOMILOV,
O'zbekiston Yozuvchilar va
Jurnalistlar uyushmalari a'zosi.**

Xodimlarning mehnatga oid huquqlari himoyalanganmoqda

Davlatimiz rahbari o'tgan yil 17-oktabr kuni kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvda soha faoliyatini yanada jonlantirish, mehnat munosabatlarini yaxshilashga oid bir qator vazifalarni belgilab bergandi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, bugun aksariyat mehnat jamoalarida amaldagi jamoa shartnomasi talablari ijrosini ta'minlash, amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari tizimiga a'zo bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalar-da Mehnat kodeksining 67-moddasi talablari asosida mehnatga haq to'lash shakli, tizimi va miqdori, pul mukofotlari, nafaqalar, kompensatsiyalar, qo'shimcha to'lovlar, ish vaqti va dam olish vaqtining, ta'tillarning davomiyligi xususida tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda. Xodimlarning, jumladan, ayollarning, nogironligi bo'lgan, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnat sharoitlari hamda mehnat muhofazasini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari muntazam muhokama qilib borilayapti.

Tashkilotning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda jamoa shartnomasida, qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda belgilanganidan ham yuqoriroq, imtiyozliroq mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy shartlarni kiritish bo'yicha takliflar o'rganilayapti.

Shu kungacha tarmoq kasaba uyushmalar tarkibiga 375 ta korxona, tashkilot va muassasalarni birlashtirib, ularda 59 ming 905 nafar kasaba uyushma a'zolari hisobga olingan. Ularning 52 ming nafardan ortig'ini ishchi-xodimlar, 11 ming nafardan ko'pini xotin-qizlar, 15,2 ming nafarini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 3,2 ming nafarini talabalar va 4,5 ming nafarini ishlamaydigan pensionerlar tashkil etadi.

Jamoalarning mehnat shartnomalari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari ekspert komissiyalari hamda jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazilib, kasaba uyushma a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy va kasbga doir huquq,

imtiyoz va kafolatlari himoyalanganmoqda.

Jamoa shartnomasini imzolagan tashkilotlarimizning 160 tasi davlat mulkiga, 23 tasi xususiy mulk korxonalariga, 12 tasi fermer xo'jaliklariga, 19 tasi aksiyadorlik jamiyatlariga, 142 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, 19 tasi boshqa mulk shakldagilarga mansub.

Joriy yilning shu davrigacha tarmoq tizimiga a'zo tashkilotlarning 165 tasida amaldagi jamoa shartnomalari talablari asosida ish beruvchilar va kasaba uyushma tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar hisoboti tinglandi. Korxona va tashkilotlarning 62 tasida amal qilish muddati tugagan jamoa shartnomalari o'rniga yangi, 2026-2028-yillarga mo'ljallangan yangi shartnomalar imzolandi. 104 ta tashkilotda ishlovchilarning mehnat sharoitlari, xavfsizligi, dam olishi va jamoa a'zolariga amaldagi qonunlar bilan belgilab berilganidan ko'proq imtiyoz va kafolatlar ko'zda tutilgan 490 dan ortiq qo'shimcha chora-tadbirlar kiritilishiga erishildi.

Normurod RAJABOV,
O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi viloyat kengashi raisi.



Matematikaning eng murakkab va kam tadqiq qilingan klassik yo'nalishida ilmiy yangilik yaratgan o'zbekistonlik olimlardan biri O'Imas Akramovdir. Bu yo'nalish murakkabligi va kam tadqiq qilinganligi sababli olimning ishlari zamonaviy matematikaning rivojida kashfiyot hisoblanardi.

Matematikada kashfiyot qilgan olim edi

O'Imas Akramov 1946-yil 25-yanvarda Samarqand shahrida tug'ildi. U Samarqand tumanidagi 21-o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib, 1963-yilda Samarqand davlat universiteti mexanika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi. O'qishni bitirib, universitetning algebra va sonlar nazariyasi kafedrasida stajyor-tadqiqotchi sifatida mehnat faoliyatini boshladi. 1970-yilda O'Imas Akramov Rossiya fanlar akademiyasining matematika instituti Sankt-Peterburg bo'limiga aspiranturaga qabul qilindi va matematika, mantiq, algebra va sonlar nazariyasi ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

U matematikaning eng murakkab va kam tadqiq qilingan klassik yo'nalishlaridan biri — maxsus formalar uchun yakkalanish (izolyatsiya) teoremlari sohasida ilmiy yangiliklar kiritgan ilk olimlar qatoriga kiradi. Bu yo'nalish zamonaviy matematika rivojida ham yagona hisoblanadi. Shuningdek, matematika olamida taniqli professor B.Skubenko bilan hamkorlikda izolyatsiya teoremlari va sonlarning geometrik xususiyatlari sohasida nodir nazariy natijalarga erishdi. Uning algebra va geometriya sohalarida 100 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan.

O'Imas Akramov 1986-2006-yillarda Samarqand davlat universiteti mexanika-matematika fakultetida dekan o'rinbosari, fakultetning kechki va sirtqi bo'limi dekani bo'ldi. O'sha vaqtlarda universitetda maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun tashkil etilgan "Yosh matematiklar maktabi"da o'quvchilarga matematika sirlarini o'rgatish va kasbga yo'naltirish



sohasida ham fidoyilik ko'rsatdi. Bugungi kunda ularning ayrimlari fan doktori va professor sifatida ilmiy ish bilan mashg'uldir.

O'Imas Akramov taniqli matematik olim, professor Sh.Yormuhamedov bilan birgalikda ilk bor universitet huzurida fizika va matematika kafaedrasida litsey tashkil etishda bevosita tashabbuskor va asoschilardan biri bo'ldi. Ushbu ta'lim maskani zamonaviy matematik tafakkur, chuqur nazariy bilim va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan innovatsion ta'lim modeli sifatida shakllantirildi. Litsey faoliyati qisqa vaqt ichida o'z samarasini berdi. Uning bitiruvchilari deyarli yuz foiz oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, mamlakatimizning nufuzli universitetlarida hamda xalqaro ta'lim va ilmiy markazlarda tahsil oldilar. Bugungi kunda mazkur litsey bitiruvchilari fan doktori, muhandis, iqtisodchi, davlat xizmatchisi, xalqaro tashkilotlar mutaxassisi va yirik kompaniyalar rahbarlari sifatida yurtimiz va xorijda faoliyat yuritib kelmoqda.

O'Imas Akramov hayot bo'lganida bu yil sakkon yoshga to'lgan bo'lardi. Uning ilmiy merosini shogirdlari, farzandlari va nevaralari davom ettirmoqda. Biz ustozni nafaqat mehribon ota, balki yuksak qobiliyat egasi, fidoyi olim sifatida hurmat bilan eslaymiz.

A.SOLEYEV,
SamDU birinchi prorektor, professor.
H.R.O'ZIMURODOV,
SamDU dotsenti.
L.AKRAMOVA,
SamDPI o'qituvchisi.

Nikoh shartnomasiga kelinlar ko'proq qarshilik qiladi

Bugungi jamiyatda oila nafaqat ma'naviy qadriyat, balki huquqiy munosabatlar tizimi hamdir. Er-xotin o'rtasidagi ishonch, hurmat va mas'uliyatni mustahkamlashda huquqiy kafolatlar alohida o'rin tutadi. Nikoh shartnomasi ana shunday muhim huquqiy vosita sifatida oilalarni nizolardan muhofaza qilish, mulkiy munosabatlarda adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu shartnoma er-xotin o'rtasida ishonchsizlik emas, balki huquqiy ong, mas'uliyat va kelajakka puxta tayyorgarlik ramzidir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 29-moddasiga muvofiq, nikoh shartnomasi - nikohlanuvchi shaxslar yoki er-xotin tomonidan tuziladigan va nikoh davrida hamda nikoh bekor qil-inganda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi kelishuvdir. Shartnoma shaxsiy munosabatlarni, farzand tarbiyasi va shaxsiy huquqlarga daxldor shartlarni o'z ichiga olmaydi. U faqat mulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Nikoh shartnomasi nikohdan oldin yoki nikoh davrida tuzilishi mumkin. Agar nikohdan oldin tuzilsa, u nikoh davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi. Shartnoma notarial tartibda tasdiqlanishi shart.

Taraflarning o'zaro kelishuviga binoan shartnoma o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi avvalambor oilada moliyaviy aniqlikni ta'minlaydi, mojarolarning oldini oladi.

Ayniqsa, tadbirkorlar, katta mol-mulkka ega shaxslar va ikkinchi nikoh tuzuvchilar uchun bu shartnoma muhim huquqiy muhofaza vositasi hisoblanadi.

Nikoh shartnomasi to'g'ri targ'ib qilinishi natijasida hozirgi kunda aksariyat yoshlar nikoh shartnomani tuzmoqda. To'g'ri, ayrim yoshlarimiz buni noto'g'ri talqin qilayotgani ham uchrayapti. Eng qizig'i, aksariyat hollarda kelinlarimiz nikoh shartnomasini tuzishga rozilik bildirmaydi. Vaholanki, nikoh shartnomasining mavjudligi ikkala tomon uchun ham birday muhimdir.

Bunday holatda biz nikoh shartnomasining afzalligini yoshlarga tushuntiramiz. Shuning uchun birgina yanvar oyida FHDY bo'limimizda 38 ta nikohlar qayd etilib, ularning orasidan 18 juftlik nikoh shartnomasi tuzishni ma'qul ko'rdi.

Inobat BOBOQULOVA,
Samarqand shahar 1-son FHDY bo'limi mudirasi.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Baturov Baxadriga (2017-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Yusupov Akramga (1995-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyev Sardorbek Akmaljon o'g'li notarial idorasida marhum Giyazova Aydinotshga (2025-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyev Sardorbek Akmaljon o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Ishtixon ko'chasi, 43-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mamatov Raxmatullaga (2021-yil 7-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Shaymanova Malaxatga (2021-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Hakimova Bonuga (2011-yil 19-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashik mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Movlanov Xoshim Abduruxmonovichga (2024-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Achilova Oltinga (2025-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Kabilova Ruxsoraga (2023-yil 4-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Chuliyev Nematga (2020-yil 1-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortigboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasida marhum Ishankulov Muxsinga (2025-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Azimov Kaxramon Xakimovichga (2025-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev

Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Xudayberdiyev Muxamadjonga (2025-yil 18-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "SAM SELIN TEXTILE" MCHJ ishonchli vakili B.Xazratkulov va sotib oluvchi Atoyeva Umida Usmanovna nomidan ishonchnoma asosida Tolibov Jasur Akmaljonovich o'rtasida Samarqand shahri "Tinchlik" MFY, Gagarin ko'chasi, 57-"A"-uy manziliida joylashgan savdo maishiy xizmat ko'rsatish kompleksi binosi A2 liter bir qismi: 2-qavat 33-xonasi uchun "SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE" MCHJ vositachiligidagi 2025-yil 30-oktabrda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 467-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnoma asosida 2025-yil 30-oktabrda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi hamda topshirish-qabul qilish dalolatnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi Amonova Nigora Ashrapovna yakka tartibdagi tadbirkorining (STIR: 635833336) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "KONSALT-EXPERT" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309440411) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand tumanidagi "HUMO GROUP CORPORATION" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312227722) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi "HUMO GROUP OFFICIAL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311090080) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Oqdaryo tumanidagi "LOYISH IPAK PILLA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 301068049) dublikat dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Xolboyev Ramizjon Savlatjonovichga tegishli Samarqand tumani "Nayzatepa" MFY, Najmiddin Kubro ko'chasi, 164-uyjoyning (kadastr raqami 14:12:08:03:10:0155) kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Mag'rur cho'qqilarga otash pan-jalarini tirab quyosh ko'rindi. Ko'kimtir muzliklar ko'zga tashlanadi. Uchoqkesak, zarang yassiliklar o'pka tusda. So'l tomonida moviy vodiylar iliq nurga cho'milgan. Shaharga yo'nalgan asfalt bahor yashilligida dengizda cho'milayotgan qora ajdaho kabi jilpanglaydi. Kattaqo'rg'on – Samarqand yo'nalishida yelib borayotgan mashina ulkan shaharga oshiqadi.

Uzoqlarda esa ertaklar shahri Samarqandning osmonga sanchilgan qubba minoralari quyosh nurida tovlanadi.

Gulbahorning nigohi toliqdi. O'rindiqqa suyanib ko'zlarini yumdi, xayol eltdi. Qiziq, dunyo tasodiflarga ko'milgan. Sho'ro zamonda o'zbek yigitlari Rossiya kengliklari, uzoq Sharqda harbiyda bo'lardi. Uning ikki akasi o'sha zamonda ham askarlikni Samarqandda o'tagan. Endi o'g'li ham shu yerda xizmat qilyapti. Askar ziyoratiga kelgan Gulbahorlar oilasi Kattaqo'rg'on – ota yurt ziyoratidan qaytishmoqda. Askar yigitlarni ota tuprog'i tortganmikan?

Otasi ...

Zarifjon Latipov. Bu benazir inson hayotining chaparastasi sinovlariga dosh bergan, beparhez kimsalarning tuhmat balolaridan ko'p aziyat chekkandi, Xudo rahmat qilgurni Kattaqo'rg'onning Tarnov qishlog'idan Dovduqqa ham ana shu taqdir bo'ronlari keltirgan.

Zarifjon aka ko'p qatori frontga – Vatan himoyasiga otlanganda ikki farzandli edi. Gavdali, chayirligi bois afsonaviy harbiy uchuvchi Aleksey Meresev bilan bir safda xizmat qilgan. Uning samolyotini yerdagi soqchisi bo'lgan. Havo laynerini uchish – qo'nishida dushmanlar hujumlaridan saqlagan. Qahramon uchuvchining maqtoqlariga sazovor bo'lgan.

1944-yil qattiq yaranalib uyga qaytadi.

Tarnov – u tug'ilgan go'sha. Umr yo'ldoshi va farzandlari Sunnatilla va Ne'matillolar ko'zi to'rt kutishmoqda. Uyiga ellik qadam qolgan. Shom qorong'usida qo'shnisi tanib to'xtadi. Qo'yarda qo'ymay uyiga olib kirdi. Ma'lum bo'ldiki, Lazokat...

Zarifjon tong sahar hech qanday manzil mo'ljallamay qo'shnikidan ketdi. Uch yil qon kechib yetdim deganda farzandlari diydorini ko'ra olmadi. Sovg'alarini qo'shnisiga tayinlab, bir umrga Tarnovni tark etdi.

Bu hayotning ilk zarbasini edi.

Mashina silkinib, to'xtadi. Gulbahor ko'zini ochganida shaharga kiraverishdagi choyxonada to'xtaganliklarini sezdi. Peshtoqiga "Olchazor choyxonasi" lavhasi bitilgan hovliga kirishdi. So'rilariga atlas ko'rpachalar to'shalgan, suv sepiilib, ariqlar ustiga joy hozirlangan, tezotat bedanalar gal talashib sayrashar, choyqayir hovuz o'rtasida tarvaqaylagan olcha daraxti xuddi nisholloga botirilganday oppoq gullagan. Choyxonachi yelkasida oq sochiq ilib yuguradi. Dam olish kuni, choyxo'rlar siyrak.

Chorqirra hovuz. Gulbahorning alam va umidga to'lgan xotiralar aravasi o'rnidan jilganday bo'ldi. Olcha shunday gullagan, go'yo toshayotgan sut bulog'i. Tahlilali bolaligining ma'yus nigohiga muhrlangan o'sha voqea hozir, shu yerda, olcha daraxti ostida sodir bo'layotganday edi.

...Ona kabi sergak, kezi kelganda jasoratga jur'atli inson yo'qdir. Qishloqda "Katta rahbarlar kelarmish" degan xabar tarqaldi. Chunki Sirdaryo qirg'og'idagi Dovduq qishlog'ida ham suv toshqini xavfi kuchayib borardi. Hatto tog'li tumanlarga ko'chib ketganlar ham bo'ldi. Lekin... Ko'zini yumgan tosh otar deganlaridek, ona jasoratga jazm qildi. Barcha farzandlarini yetaklab to'g'onga boradigan yo'l qirg'og'idagi olcha daraxti soyasida "katta rahbarlar"ni kutdi. Mashinalar kelib-ketaverdi. Basharlari jiddiy kishilar ona va bolalarni yo'lda turmaslik, qatnovga xalaqit bermaslik uchun ketishlarini keskin buyurishdi. Lekin Rohilaxon aya o'n bir norasidasini bag'riga bosdi, o'rnidan jilmadi. Shapka kiyganlar ham, mahalla oqsoqollari ham qaroridan qaytara olmadi.

Uzoqda siyohrang chiroqlarini aylantirib mashinalar oqib kela boshladi. So'ngra zulukdek qora mashina yaqinlashganda ona yo'l o'rtasiga chiqib ikkala to'lini ko'tardi. Bezovta karvon kabi tormoz chiyillashlari eshitildi. Qora mashina harqalay to'xtadi. Boshqalaridan esa bir xil kiyigan, bir qo'li cho'ntagida tundbashara kishilar onani o'rab olishdi. Nihoyat...

Qora mashinaning orqa eshigi ochilib kulrang kostyum-shim va shlyapa kiygan, baland bo'yli, istarali kishi tushib ayol tomonga asta kela boshladi. Ona har daqiqani g'animat bilib rahbardan oldin murojaat etdi.

- Men o'rtog'ingiz Zarifjon Latipovning ayoliman, bular bolalarim, mana metrkalari, -dedi.

Rahbar qo'llarini ikki tomonga yozganicha xursandligini yashirib o'tirmadi:

- Iya, iya, bular Latifzodaning bolalarimi? Barakalla, barakalla. Zarifjonning o'zi qayerda?

Ona-bolalarning ma'yus nigohidan rahbar jiddiylashdi:

- Nima gap, kelin?

- O'rtog'ingiz tuhmat tufayli qamalib ketganlar, nohaq yotib-dilar.

Rahbarning chehrasi tundlashdi. Ortidagi kishilarga norozi boqdi.

- Siz diqqat bo'lmang, kelin. Bu haqda Matjonovga yozing, o'zim surishtiraman, - dedi-da, asta cho'kklab besh yashar Gulbahorning peshonasini siladi, olcha gullari qo'nib qolgan tim qora sochlarini barmoqlari bilan asta taroqlab erkalab qo'ydi.

Bu inson o'sha paytdagi O'zbekistonning bosh rahbari Sharof Rashidov edi.



duv-duv
to'kilganda...

(Esse)

Mashinalar oqimi to'g'onga yo'l oldi. Rasmiy kishilar shubhali, mahalladoshlari esa bu oilaga havas bilan boqardi. Bir soatlar chamasida rahbarlar qaytishdi. Ona munis siymosini ko'z yoshlari bilan yuvib, o'sha qora mashinani kuzatib qoldi. Mashinalar karvoni epkini qo'zg'atgan mayin shabadadan olcha gullari duv-duv to'kilgan, Gulbahorning qalin sochlari olabayroq edi.

Bu voqea bundan roppa-rosa o'ttiz yil muqaddam – 1968-yilning bahorida, olcha gullari duv-duv to'kilganda... ehtimol shu bugun sodir bo'lgandir.

Ko'p o'tmadi. Olcha gullari to'kilib, g'o'ra-gurunch bo'lganda... Latipovlar xonadonida ham quyosh balqidi. Zarifjon ota besh yildan so'ng uyga qaytgandi.

... Xotin xiyonatidan ko'ngli vayron Zarifjon ikki yil turli qishloqlarda o'qituvchilik qildi. 1946-yil Toshkent dorilfununida birga o'qigan do'sti, "Qizil O'zbekiston" gazetasining bosh muharriri Sharof Rashidov bilan uchrashdi. Zarif aka "Latifzoda" taxallusi bilan bitgan she'rilaridan o'qib berdi. Muharrirning gazetada qolib ishlashi haqidagi taklifini rad etib, Naman-gan tomonlarga jo'nadi. O'nhayot mavzesida o'qituvchilik qildi. U bolalarni sevardi, suyib bag'riga bosardi. Shogirdining hijjalab o'qishidan zavqlanar, ota-onalar, mahalla kishilari orasida obro' topdi. Rohila ismli qizga uylandi. Ikki farzandli bo'lib, 1951-yil maorif boshqarmasi yo'llanmasi bilan Dovduq qishlog'iga keldi. Dastlab Gurtepadagi "TO'M" (hozirgi 6-maktab)da ishlab, ko'p o'tmay dovduqliklarning domlasi bo'ldi.

Kengashganga keng dunyo deydlar. Domla bamaslahat ish yuritib, oilani tiklashda chorvachilikni afzal ko'rdi. O'nlab bosh sigir, 50-60 bosh qo'y saqlab, nafaqat ust qurdi, balki to'y qilib, elga dasturxon yozdi. Hozirgidek tadbirkorlik samarasini o'sha yillardayoq ko'rsatgan edi. Lekin hayot ko'rsatgan ot ham, eshak ham o'tarkan. Xrushchevning dovdir siyosatidan ruhlangan ayrim dovdir-larga domlanning tadbirkorligi ko'p ko'rinar, ichlari yonardi. Tez kunlardan so'ng chorva hayvonlarini soliqchilar tortib ola boshladi. Domla ko'p idoralarga murojaat etib, tortib olingan mulkini qaytarishni talab qildi. Lekin mahkamalar "Olaqarg'adan olaring bo'lsa, yoz bor, qish bor, olarsan" qabilada ish tutishdi.

Ushbu satrlarni yozar ekanman, domladan ozmi, ko'pmi saboq olganimdan faxrlanaman. Kaminari jurnalist bo'lishimda Latipov domlanning saboqlari qo'l kelgan bo'lsa ajab emas. Esimda, adabiyot to'garagida Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" dostoni haqida mashg'ulot olib borgan edi. Dars-

ni shunday mahorat bilan o'tar edilarki, go'yo gapirganda ko'zga ko'rsatib aytardi. Domlanning ham bilmagani bormikan, derdik. Ayrim she'r va dostonlarni butunligicha yoddan aytardi. Qahramonlar xarakterini ochishda, asar kompozitsiyasi, personajlari haqida so'zlaganda bulbul edilar, o'zi ham rohatda bo'lardi.

Uzr, o'quvchim, kamina sizni bolalikning shoshqaloq dunyosiga boshladi, shekilli. O'rtog'im Sharifjon domlanning to'ng'ich o'g'li edi. Sharifjon "A", men "B" sinfda o'qirdik. Uylari maktabga yaqin bo'lganligi uchun katta tanaffus deguncha Sharifjonlarnikiga chopqillardik. Onasi Rohilaxon ayaning har kuni non yopayotganini ko'rardim. Olov taftidan yuzlari lov-lov yonib "Bo'yginang-dan onang o'rgilsin, bolaginamning o'rtog'i" deb bag'rilariga bosardi. Qaynoq kulcha sindirib do'ppimizga solar-di. Kunlarning birida o'qituvchi yo'qligi sababli ikkala sinf qo'shib o'qitiladigan bo'ldi. Bizning sinfga "A" sinf bolalari yopirilishdi. Sharifjonning ko'zlari meni qidirardi. Bir partada to'rt bola o'tirdik. Xona sovuqligidan mening choponim o'ng yengini Sharifjon o'ng qo'lga, chap yengini men chap qo'limni ki-yib ikkalimiz bir choponga belbog' bog'ladik. O'qituvchimiz Sharifjonni doskaga chaqirganda ikkalimiz teng chiqishga majbur bo'lgan-miz. Rosa kulgi ko'tarilgan. Domlamiz "tadbirkorligimiz"ga "baho" qo'ygandi o'shanda.

Bolalikning tuproqli, beg'ubor so'qmoqlari ortda qoldi. Eslaysan-u, xotiralandangina panoh qidirasan, qog'oz qoralab taskin topasan, inson.

May oyining oxirlari edi. O'quv yili yakunlangan. Yillik bahoni o'qib berish bahonasida 4-sinf o'quvchilari ham maktabdan ketishmagan. 50 – 60 nafar o'quvchi yuk mashinasiga o'tqazilib "arzimagan hashar"ga olib ketildi. Oxiri ko'rinmas paykalda har bir o'quvchiga to'rt qatordan ajratildi. Vazifa: sifatli g'o'za yaganasi, begona o'ni yulish, tagini yumshatish... va nihai yillik baho o'qib eshittiriladi. Quyosh tepadan olov purkaydi, tuproq oyoqni bozil-latadi. Dala shiyponida esa...

Uzoqlarda esa ertaklar shahri Samarqandning osmonga sanchilgan qubba minoralari quyosh nurida tovlanadi.

...Ariqlar labiga suvlar sepiigan, tol salqinidagi so'ri esa mehmonnavoz bezatilgan. Go'sht to'la qozon biqillaydi, paqir to'la tuxum suvda qaynamoqda, yana bir chelakda selitra suviga solingan shishalar bo'y ko'rsatib turibdi. Mehmonlar yuz-ko'zlari qip-qizil, o'tirganda qorinlari ko'rpachaga tegib turadigan "bechorahol" kishilar edi. Ular maktabning katta-kichik rahbarlari, brigadirning "kichkinagina" iltimosi uchun "arzimagan hashar" uyushtirgan rahbarlar va rahbarchalar edi.



O'n bir yashar bolalar mehnatlari orqasidan brigadir dasturxonidan "o'ch" olishmoqda edilar. Bazm ayni qiziganda sovuq suv sepiiganday davradan fayz ketdi. Chunki so'ri yoniga Zarifjon Latipov yetib kelgandi. U go'yo bolalarga dars berayotganday qo'llarini siltab gapirar, oftobda qovjirayotgan bolalarning azobini bayon qilardi. O'quvchilarning Amerika paxta plantatsiyalarida voyaga yetmagan bolalar ezilishidan qanday farqi bor deya tanbeh berardi. Bolalarni beto'xtov uylariga jo'natib yuborishni talab qildi.

Lekin bosh rahbar "prinsip" ko'rsatdi. O'z qo'li ostida ishlayotgan oddiy o'qituvchining "odobsizligi" uchun ta'zirini bermoqchi edi. So'ridan tushib Zarif akani turtib-turtib haydab yubormoqchi bo'ldi. Mojaro hatto mushtlashishgacha bordi. "Prinsip"i o'tmagan rahbar domlaga "paxta dushmani"san degan tavqi la'natni osdi.

Domla afsus chekdilar. Selitra suvi qo'yilgan paqirni tepib ag'darib, paxtazordan "Sharif, ho Sharifi" deb o'g'lini chaqirdi va istimada lovillayotgan Sharifjonni olib ketdilar.

Paxtakorlar ko'z oldida obro'si "tuxum po'choq" bo'lgan bosh rahbar duch kelgan idoraga dod solib, xalq maorifini "paxta dushmani"dan tozalash talabini qistiraveradi. Mag'zi achchiq bo'lsa, po'stiga ham uradi deganlaridek maktabning ayrim rahbar va o'qituvchilari ham rahbar ayuhannossiga qo'shildilar. Tuhmat rejasini tuzilib, domlani qamatushga erishdilar.

Qishning uzundan-uzun kechalari. Bir chimdim uxlab cho'chib tushayotgan bolalarning beadam savollari Rohilaxon ayaning shundoq ham kuynan qalbiga cho'g'tashlaydi. Biri qo'yib, biri so'roqlayotgan ota qaysi qamoqxonada, xech kim aytmaydi. Narsa olib borsa olishmaydi. O'n bir norasida go'dak qatorlashib bir ko'rpada yotishadi. Tahlilali kechalarning qo'rqinchli tunlari ona yuragiga xanjar kabi qadaladi. Ona bag'riday issiq joy bormikan, bu dunyoda. Gulbahor onasini quchoqlaydi.

Murg'ak tasavvurida onasidan-da mehribon, onasidan-da kuchli zot yo'q. Otalari so'rovidan toliqqan Rohilaxon aya ayriqlik tunlarining bolalariga shunday hikoya aytdilar.

- Hazrat Navoiy "Xamsa"sining "Saddi Iskandariy" dostonida shunday hikoyat keltiriladi, -deya so'zlardi ona. – Emishki,

yetti iqlimni fath etgan bir podsho hashamatli saroy quribdi. Saroy o'rtasiga eng uzun ustun uchun eng to'g'ri daraxt lozim ekan. Mulozimlar yetti iqlimga jar solib ustun qidiradilar. Eng to'g'ri daraxtni sharti ketib parti qolgan to'qson yoshdan o'tgan bir kampirning uyidan topishibdi. Kampir shohni uyiga taklif etibdi. Shoh: "Ey, ona, daraxtning evaziga qancha oltin so'raysan" debdi. Kampir: "Bu dunyodagi eng to'g'ri o'sgan sarv daraxtidir. Evaziga daraxt og'irligicha oltin berasan?" debdi. Shoh ham rozi bo'libdi.

Saroy mulozimlari oltinni tog' kabi uyubdilar. Hamma buncha boyluk uchun kampir shoh oyog'iga yiqilib minnatdor bo'ladi, deb o'ylashsa, kampir ko'z yoshlarini to'xtata olmay sarv daraxtini quchoqlabdi. "Ey mo'jiza daraxti! To'g'ri o'sganliging uchun ming rahmat. Meni oltin-ga ko'mib tashlading. Ming afsuslarkim, faqat to'g'riliging uchungina tanangga bolta uradilar" deb yig'lagan ekan. Aziz bolalarim, dadangiz ham shunday sarv edilar, tuhmat boltasini urdilar.

...Choyxona gavjumlashdi. Gulbahor askar o'g'lini ko'rib, ota yurtini ziyorat qilar ekan, qarindoshlari, akalari bilan diydorlashdi. Esida, Dovduqqa ko'chib kelishgandan so'ng Tarnovdan so'roqlab Lazokat aya ikki o'g'li bilan kelganlar. Farzandlar ota bilan ko'rishishgan. Ne'matullo bir necha yil ota uyida yashadi. Lazokat aya o'sha kuni qo'shni ayol xonadonida turib, Rohilaxon ayadan minnatdor Samarqandga qaytdilar.

Men ushbu satrlarni to'qib yozmadim. Qo'limda hurmatli domlamiz Zarifjon Latipov haqida mashhur paxtakor Nabijon Qoraboyev, muhtaram domlamiz Abdurahmon Dehqonov, Borixon Solixonov, Ibrohim Abdullayev, Qurbonali Bozorov, Hakimjon Malikov kabi ustozlarimning xotira satrlari, domlanning qizi Gulbahor va boshqa farzandlarining hikoyalari, qolaversa, domlamiz bilan o'zim hamnafas bo'lganlarim asosida qog'ozga tushirdim.

Gulbahor olcha daraxtiga tikiladi. Mayda yaproqchalarni qitiqlab, asalpaz arilar sarsari kezadi. Hovuzning ko'zgu jamoliga olcha guli yaproqchalari kapalak singari uchib qo'nadi. Ertalabki shamol epkinidan hovuz jamolini ajin qoplaydi.

Qamoqdan qaytgan Zarifjon Latipov haqsizlik va adolatsizlikdan azob chekdi. Chorva hayvonlarini qaytarmadilar. Urush jaholatlarining qamoqda maddalashi ham sabab bo'ldi. Domlamiz 1972-yil 13-avgust kuni vafot etdi. O'g'li Sharifjonning ham umri qisqa ekan. 1973-yil 9-noyabr kuni traktor falokatidan halok bo'ldi. Sharifjon otasiga bir tomchi suv kabi o'xshash edi. "Domla chaqirib oldilar" deyishdi dovduqliklar. 1997-yil Rohilaxon aya ham dunyodan o'tdi. Ularning farzandlari biri paxtakor, biri muallima, biri shifokor, uy bekasi... xalq jo'aligining turli sohalarida ota-onalarining pokiza nomlariga munosib yashashmoqda.

Abdunazar BURXONOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi,
Mingbuloq tumani.

1-mart – shoir, jamoat arbobi
Zulfiya tug'ilgan kun

BAHOR KELDI SENI
SO'ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Lekin yotog'imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo'ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so'ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya», yakkash so'roqlab
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

O'rik gullariga to'nmaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho'x na'shidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochini?

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlarinda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonxol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham gaming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutoqib daraxtga ko'chdi,
Kurtakni uyg'otib so'yladi g'amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g'unchasini etdi chok-chok.

Superliganing o'tgan yilgi mavsumida
Vadim Abramov boshchiligidagi «Dinamo»
yorqin o'yin ko'rsatib, 25 yil avvalgi
tarixiy natijasini takrorladi va
hatto bronza medaliga
da'vogarlik qildi. Jamoa
bu yil ham oliy ligada
sovrinli o'rinlarni
qo'lga kiritish va
muxlislarni xursand
qilish niyatida.



Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo'shiq.
Bu qo'shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to'liq.

Bahorgi burkangan sen sevgan elda,
Ovozning yangradi jo'shqin zabardast.
O'lmagan ekanan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbmida, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

SOG'INIB

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.

Kuz singari za'far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzoq.
Shu kunlarda bahorga zorman,
Tanxastalik ezadi ruhim.

Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?
Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko'ngul.

Yaxshiya'mki, qalamga yorman,
So'zlab turar bor dilimni ul.
Shu kunlarda bahorga zorman,
O'z bahorim kabi bemisol.
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no'noq qo'l butagan nihol.
Shu kunlarda bahorga zorman...

Zulfiya ISROILOVA.

Eng katta meros – yaxshi tarbiya

Insoniyat tarixiga qarab, moddiy emas, balki ma'naviy
meros, xususan, yaxshi tarbiya jamiyat rivojining asosiy
omili bo'lib kelganini ko'rish mumkin. Bugungi globallashuv,
raqamlashtirish va axborot oqimi kuchaygan davrda yoshlar
tarbiyasi masalasi dolzarb hisoblanadi.

Yaxshi tarbiya orqali shaxsning dunyoqarashi, qad-
riyatlar, mas'uliyati va faol fuqarolik pozitsiyasi shakl-
lanadi. Tayyor qolip yoki tashqi ta'sirlarga ko'r-ko'rona
ergashmasdan, har bir masalaga tahliliy yondashadi.

Bugungi yoshlar milliy qadriyatlarimizni hurmat qilib, tarix,
urf-odatlarimiz, an'analar va ma'naviy merosni qadrlashni
o'rganishi kerak. O'zlikni anglash va unga sadoqat insonni
ma'nan boyitib, jamiyatdagi o'rini mustahkamlaydi.

Globallashuv jarayoni, raqamli texnologiyalarning keskin
rivojlanishi hamda axborot oqimining cheksizligi yosh-
lar ongiga ta'sir ko'rsatmoqda. Agar bu jarayonlar to'g'ri
boshqarilmasa, salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki
internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning ongiga turli zararli
g'oyalar singdirilmoqda. Jumladan, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi
kontentlar, haddan tashqari iste'molchilik ruhiyati, ma'naviyatsizlik va
axloqiy me'yorlarning buzilishi, milliy qadriyatlarga yot bo'lgan begona
hayot tarzi yoshlar tafakkuriga yomon ta'sir qilayotgani kuzatilmoqda.

Soxta qadriyatlar ko'pincha "zamonaviylik", "erkinlik" yoki "mu-
vaffaqiyat" niqobi ostida targ'ib qilinadi. Ular yoshlarni o'z ildizlari-
dan uzoqlashtirib, ma'naviy bo'shliq paydo qiladi. Eng xavfli,si,
yoshlar virtual olamdagi sun'iy obrazlarni real hayot sifatida
qabul qila boshlaydi.

Shu bois bugungi kunda yoshlar ongida axborot madaniyati-
ni, tanqidiy fikrlashni va mediasavodxonlikni shakllantirish dol-
zarb vazifaga aylanmoqda. Oila, ta'lim muassasalari va jamiyat
hamkorlikda yoshlarni ongli ravishda axborotni tahlil qilishga
o'rgatishi zarur.

Eng katta meros bu boylik yoki mansab emas, balki
yaxshi tarbiyadir. Yaxshi tarbiya olgan avlod millat sha'nini
himoya qiladi, jamiyatni rivojlantiradi.

Manzura HAMROYEVA,
Kattaqo'rg'on tuman 2-son texnikumi o'qituvchisi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.
10 854 nusxada chop etildi. Buyurtma 82. Hajmi 3 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

“Dinamo” mavsumga
tayyormi?



Ilk turda ustoz-shogird duelida
kim g'olib bo'ladi?

hor»ga qarshi maydonga tushadi. Milliy terma jamoaning sobiq
bosh murabbiyi Temur Kapadze hozirda «Navbahor» klu-
bini boshqarmoqda. Aytish joizki, Abramov va Kapadze
ustoz-shogird sanaladi va mavsumning ilk turi ular
bahsi bilan boshlanadi. Bu ikki murabbiy qo'l ostida
ham o'ynagan, shu yil «Andijon» klubidan «Dinamo»-
ga o'tgan Bektemir Abdumannonov Samarqand klubi-
bidagi maqsadlari va oliy liganing ilk o'yini haqida
fikrlarini bildirdi.

- Samarqanddagi faoliyatim davomida
O'zbekiston milliy terma jamoasidan chaqiruv olish
va «Dinamo» bilan kamida bitta sovrin yutishni
maqsad qilganman, - deydi Bektemir Abduman-
nonov. - Shuning uchun bu yerdaman. O'tgan mavsum
kuzatgandim, «Dinamo» ikkinchi o'ringa juda yaqin edi, qolaversa, kubok yarim finalida penaltilar seriyasida
omadi kelmagandi. Finalga chiqqanda «Dinamo» kubokni olardi, deb o'ylayman. Albatta, bu mavsum ham yuqori o'rinlar uchun kurashishni maqsad qilganmiz. Mavsumning ilk bahsiga kelsak, ikki murabbiyning ham o'yin uslubi deyarli bir xil. «Olimpik» safida Kapadze murabbiyligidagi taktikadan kelib chiqib, aytishim kerak, ikkala jamoa ham to'p bilan ko'p harakat qiladi. Bu o'yin zo'r o'tadi, kim yaxshiroq tayyor bo'lsa va omad kulib boqsa, o'sha uch ochkoga ega bo'ladi. Mezbon sifati-
da faqat g'alabaga intilamiz va mavsum davomida yana yorqin o'yinlar ko'rsatishga harakat qilamiz.

HUJUMKOR TARKIB BILAN O'YINLAR QIZIYDI

Bu yil «Dinamo»da asosiy darvozabon sifatida Edem Nemanovga ishonch bildi-
rilgan. U o'tgan mavsumda 12 o'yinda maydonga tushib, 6 ta quruq o'yin o'tkazdi.
Ikkinchi posbonimiz Ravshan Yagudin ham bor. Bu chiziqda ustunlik «Navbahor»
tomonida. Chunki namanganliklar darvozasi milliy terma jamoa darvozaboni O'tkir
Yusupov qo'riqlaydi. Himoyaga kelsak, o'tgan yilgidan farqli ravishda bu mavsum
«Dinamo» himoyasida kuchli raqobat muhiti shakllanmoqda. Himoyada Jaloliddin
Jumaboyev, Salim Mustafoev, legionerlar Muhammadu Dembele va Mauro Brazil
harakat qiladi. Markaziy himoyada asosiy yuk Jahongir O'rozov zimmasiga tushi-
shi mumkin. Hujumda esa Anvarjon Hojimirzayev, Ulug'bek Hoshimov va Mirjahon
Mirahmadovga ishonch bildirilgan. Shu bilan birga, hujumchi o'rni bosa oladigan
hujumkor yarim himoyachilar Firdavs Abdurahmonov, Azizbek Amonov, Bektemir
Abdumannonov, Nurillo To'xtasinov, Oybek O'rmonjonov, Hislat Xalilov, Sanjar Qo-
dirqulov hamda legionerlar Dramane Salou va Til Mavretichlar ham o'zini ko'rsatishi
kutilmoqda.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

“Besh tashabbus
olimpiadasi”:

musobaqalarga milliy o'yinlar qo'shildi,
«B», «S» ligalar olib tashlandi



Mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazilib kelinayotgan “Besh
tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalarining joriy yilgi
mavsumida bir qator o'zgarishlarni ko'rish mumkin.

Viloyat sport boshqarmasi bo'lim boshlig'i Jamshid Tillayevning
ma'lum qilishicha, hozirga qadar olimpiadada ishtirok etish uchun viloyat
bo'yicha “5 tashabbus.uz” platformasida 30 mingdan ziyod yoshlar
ro'yxatdan o'tgan. O'tgan yilgi mavsumda yoshlar 14–30 yosh toifasida
sportning 14 turi bo'yicha besh bosqichdagi musobaqalarda bellashgan bo'lsa,
bu yil musobaqalar 13 sport turi bo'yicha 16-30 yosh toifasida o'tkaziladi. 30
yoshdan oshganlar “Mahalla ligasi” bahslarida ishtirok etadi.

– Yangi mavsumda musobaqa nizomiga
milliy xalq o'yinlari ham kiritilishi rejalashtirilgan
bo'lib, arqon tortish, tosh ko'tarish, arg'imchoq-
da sakrash, armrestling, mas-restling (tayoq
tortish) sport turlari qo'shildi, – deydi J.Tillayev. –
Ilgari ishtirokchilar musobaqalarda egallagan o'rni
va darajasiga ko'ra “A”, “B”, “S” ligalarida ishtirok

etardi. Bu mavsumdan “B”, “S” ligalar olimpiadaga
kiritilmadi. Endi musobaqalarning viloyat bosqichida
birinchi o'rinni qo'lga kiritgan sportchilar respublika
bosqichiga yo'llanma oladi. Faqat sportning stol tenni-
si, shaxmat, shashka, vorkaut turlari bo'yicha viloyatda
ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallagan sportchilar
respublikada ishtirok etishi belgilangan. Shuningdek,



oldin yengil atletika musobaqalarida yoshlar jamoaviy
estafeta bahslarida qatnashgan bo'lsa, endi yakka
tartibda ishtirok etadi.

“Besh tashabbus olimpiadasi”ning ko'chalararo
bosqichi mart oyidan boshlanadi. Aprelda mahalla,
mayda sektor, iyunda tuman, iyul-avgust oylarida esa
viloyat bosqichlari o'tkaziladi. Aytish joizki, o'tgan yil
olimpiadaning respublika bosqichida viloyatimiz sport-
chilari 19 ta oltin, 14 ta kumush va 9 ta bronza medal
bilan umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egallagan.

F.FAXRIDINOV.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun
QR-kodni telefoningiz
orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda